



**ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILARDA DIOLOGIK NUTQNI
DARSDAN TASHQARI FAOLIYATLARDA SHAKLLANTIRISH**

Teshabayeva Oygul Fazliddinovna
Nizomiy nomidagi TDPU Surdopedagogika
va inklyuziv ta'lim kafedrası o'qituvchisi
tesabaegasamira@gmail.ru
Tel: +998999190750

Annotatsiya:

Ushbu maqola zaif eshituvchi o'quvchilarda diologik nutqni darsdan tashqari (ekskursiya, to'garak, predmet-amaliy ta'lim) faoliyatlarda shakllantirish xususiyatlari yoritilgan va metodik tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar va tushunchalar: Dialogik nutq, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, og'zaki nutq, korreksiya, reabilitatsiya, nutq o'stirish, predmet – amaliy ta'lim, to'garak, ekskursiya.

Ключевие слова и понятия: Диалогическая речь, дети с нарушениями слуха, устный речь, коррекция, реабилитация, развития речи, предмет - практическое образование, кружок, экскурсия.

Аннотация: В данной статье описываются особенности формулирования диалогической речи во внеурочной деятельности (экскурсии, кружки, предметно-практическое обучение) для студентов с нарушениями слуха и даются методические рекомендации.

Key words and concepts: Dialogue, children with hearing impairment, oral speech, correction, rehabilitation, speech development, subject - practical education, circle, excursion.



Resume: This article describes the features of the formulation of dialectical speech in extracurricular activities (excursions, study groups, subject-practical training) for students with hearing impairments and provides guidelines.

Dialog-psixofiziologik rivojlanishida muammolari bo'lgan shaxslarni ijtimoiylashuvida muhim vositalardan biridir. Og'zaki nutq - eshitishda nuqsoni bo'lgan odamlarni sog'lom odamlar bilan o'zaro aloqasi, bu toifa odamlarni ijtimoiylashuvida va butun hayotidagi muvoffaqiyatni belgilaydigan muhim muammoni yechimi hisoblanadi [1]. L.S.Vigotskiy: "... ko'r va karlar insoniy hулq-atvorini to'liq egallashga qodir, shuning o'zi faol hayotdir..." degan, ammo, har qanday jismoniy kamchilik bolani hayotga munosabatini o'zgartiradi, lekin, eng avvalo, bu ijtimoiylashayotgan odamlar bilan munosabatda aks etadi [2]. Demak, dialog shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonidagi yetakchi rolni bajaradi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolada nutqning rivojlanmasligi esa, ijtimoiy xulq -atvorni to'liq buzilishiga olib keladi. Bola shaxsiy aloqa malakalariga ega bo'lmay yopiq muxitda qoladi, bu esa uning holatini yanada og'irlashtiradi.

Dialogik nutqning shakllantirish jarayoni - bu zamonaviy maktablarning muhim vazifalaridan biridir. Boshlang'ich siniflarda ona tiliga o'qitish metodikasida kattagina vaqt bog'langan nutqni shakllantirish jarayoniga ajratiladi. Nutq o'stirish bo'yicha ishlar asosan dars sharoitlarida qat'iy tashkil etiladi. Ba'zi mashqlar o'quvchilar tomonidan uyda yoki ba'zi sinfdan tashqari tadbirlarida (masalan, ekskursiyada) bajariladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy mashqlar farqlanadi:

- savollarga to'liq javob berish (shuningdek suhbatda ham);
- o'qilgan asarni taxlil qilish grammatik materialni o'rganish og'zaki nutq leksikasini taxlil qilish bilan bog'liq turli matnli mashqlar:
- suhbat vaqtidagi kuzatishlar, ularning yakuni bo'yicha yozishmalar; tabiat va ob-xavo kundaligini yuritish;
- o'qilganlarni turli variantda og'zaki so'zlab berish;
- o'quvchilarga berilgan mavzu, rasmlar, kuzatish, berilgan reja asosida, dialogning boshi va oxiriga ko'ra og'zaki hikoyalar, shuningdek dialoglar tuzish;
- yod olingan badiiy matnlarni ifodalash;



- ertaklar, she'rlar, kichik hikoyalarni sahnalashtirish;
- berilgan matnlarni yozma bayon etish;
- o'qilgan asarlar yoki o'z hikoyalarni turlicha sahnalashtirish, og'zaki chizish, o'qilgan hikoyalarni og'zaki ifodalash, tasavvurga ko'ra ekranlashtirish;
- turli xil yozma insholar;
- darsda o'qituvchi bilan suhbatlashish;
- o'quvchilar orasidagi darsdagi dialoglar: muhokama qilish, bahslashish, jamoaviy bahslashuv va xakozo;
- maktab gazetasi uchun maqolalar va qaydlar o'qigan kitoblari haqida mulohazalar, ish qog'ozlari va hakozo.

Dialogik nutqni shakllantirish asosan o'qituvchi va o'quvchining suhbat va o'z-o'zi bilan mavzu yoki ko'rgazma asosida suhbatlashish ko'rinishida amalga oshiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun og'zaki nutqiy muloqat- ular tomonidan nutqni idrok etish va ifodalash bilan bog'liq muammolarga olib keladi. Masalan, turli xil ovoz buzilishlari: sekin, zaif, baqiroq, juda baland yoki juda past, bo'g'liq yoki burunli, xirillagan va xakozo. So'zlarda ko'pincha bir tovush boshqalari bilan almashtiriladi, so'z yoki oxiridagi tovush tushib qoladi; ba'zi so'zlarda bir bo'g'ingina saqlanib qoladi. Bunday vaziyat kar yoki zaif eshituvchini nutqni idrok etishga ta'sir etadi va uni sog'lom eshituvchilar bilan muloqatini qiyinlashtiradi. Kommunikatsiya jarayonini tavsiflashda suhbatdoshning lug'at boyligi xususiyatlarini hisobga olish zarur. Zaif eshituvchi bolaning nutqni eshitishga ko'ra to'liq idrok eta olmasligi bilan bog'liq ravishda nutqiy malakalarining chegaralanganligi lug'at boyligining kambag'alligiga va bu so'zlarni o'ziga xos tarzda qo'llanilishiga olib keladi.

Dialogik nutqni rivojlantirish predmetli – amaliy ta'lim faoliyati bilan bog'liqlikda, bosqichma-bosqich amalga oshadi. Ilk bosqichda bolalar yangi so'zlar va so'z birikmalari, nutqni kechishi bilan tanishtiriladi. Bunday tanishtirishning bir qancha usullari mavjud [5]: 1) predmetli – amaliy faoliyatda nutqiy materialni berish; 2) birinchi usulga mos predmet yoki faoliyatni ko'rsatish; 3) aytilgan faoliyatlarni bajarish; 4) so'zli vositalar bilan tushuntirish; 5) bolalarning mantiqiy tafakkuridan foydalanish va uni rivojlantirish. Keyingi bosqichda yangi nutqiy materialni takorolash, amaliyotda qo'llash va mustahkamlash amalga oshiriladi,



o'quvchilar bilan kommunikativ yo'nalganlikka ega bo'lgan turli xil predmetli – amaliy faoliyatlar tashkil etiladi. Bu quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: o'qituvchini butun sinf bilan ishlashi, “kichik o'qituvchi” bilan ishlash, brigada bilan ishlash, juft bo'lib ishlash, konveyr bo'yicha ishlash. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bollar nutqini rivojlantirish ustida darsda ishlashda boshqa turdagi ishlar ham tashkil etiladi: yopiq kitob bilan ishlash, ko'rilgan film, o'qilgan hikoya haqida, qiziqarli voqealar va bajarilgan ish haqida suhbatlashish va boshqalar. Predmetli – amaliy ta'lim darslarida olingan ma'lumotlar, o'quvchilarni keyingi kommunikativ amaliyotga tayyorlaydi, o'quvchini o'qituvchiga va bir- biriga so'zli murojaati zarurati va ehtiyojini yaratadi. Bolalarning o'yin yoki amaliy faoliyatini tashkil eta turib, pedagog, bolalarda takrorlash va shunga o'xshash o'z javoblarini aytishlarini so'rab, tayyor javobli dialoglarni taklif etadi. Savol- javobli dialog turi kabi, xabar-xabar dialog turi ham ma'lum qiyinchiliklarga uchraydi, u zaif eshituvchi suhbatdoshdan dialogni boshlashni talab etadi, bu unga javob berishlari uchun birinchi xabarni shakllantirishdir. O'quvchilar tomonidan dialog tuzilishi va javoblarni o'zlashtirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: qo'zg'atuvchi gap- darak gap – dialog. Masalan, 1) Doskani latta bilan art. 2) Anvar doskani latta bilan artyapti. 3) Anvar doskani nima bilan artyapti? – Latta bilan. Zaif eshituvchi bolalar uchun qisqa javob berish oson emas.

A.G.Zikeyev, K.V.Korovnev [3] ishlarida zaif eshituvchi o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar darsdan tashqari vaqtlarda, sayrlar, ekskursiyalar, bog' va tomorqadagi mavsumiy ishlarni kuzatish, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatishda; kino ko'rish, kitoblar o'qishda, mozayka, qog'oz bilan ishlashda va boshqa turdagi faoliyatlar jarayonida ham olib borilishi ta'kidlanadi. Bu dialoglar ko'proq o'z-o'ziga xizmat qilish(sinfni tozalash, kiyim kechaklarini ozoda saqlash, shaxsiy gigiyena), u yoki bu ish bilan(to'garaklarda, amaliy ishlardagi muloqat), savdo qilish yoki jamoat transporti bilan bog'liq. Sinfdan tashqari ishlar bolalarning ijtimoiy malakalarini o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Bu asosan eshitish nuqsoniga ega bo'lganligi oqibatida ijtimoiy malakalari chegaralangan bolalar uchun juda muhim. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kundalik hayotini tashkil etish va korreksion – rivojlantiruvchi ishlarni sinfdan tashqari ishlarda olib borish qator olimlar ishlarida ko'rib chiqilgan. Bu



tadqiqotchilarning ishlarida sinfdan tashqari vaqtda ishlash zaif eshituvchi o'quvchilarning dialogik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, ularning nutqini rivojlantirish, muloqat doirasini kengaytirish uchun ijobiy sharoit yaratilishi ta'kidlanadi.

Metodik adabiyotlarda zaif eshituvchi o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish uchun syujetli – rolli va nutqiy o'yinlarning muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi [4]. Syujetli –rolli o'yin bu voqelikni aks ettirilishidir. Shuning uchun bunday o'yinlar jarayonida zaif eshituvchi bolalar inson hayot faoliyati soxasidagi ko'pgina bilimlarni egallashi, uni turli kommunikativ vaziyatlardagi xulq-atvori xususiyatlarini anglashi mumkin. Syujetli –rolli o'yinlarning asosiy mativi – rolli muloqatdir. Ma'lumki, zaif eshituvchi bolalarning syujetli-rolli o'yinlarda shakllangan dialogik nutqi kommunikativ yo'nalganlikga ega. Bunday o'yinlar nutqiy rivojlantirishdagi qator vazifalarni hal etadi, ular ichidan bizning tadqiqotimiz uchun eng muhimi og'zaki muloqatni va egallangan lug'atni o'yin syujetiga bog'liq ravishda qo'llay olish malakasini rivojlantirish vazifasi hisoblanadi.

Sinfdan tashqari ishlarda nutqiy o'yinlarni qo'llash natijasida zaif eshituvchi bolalar aniq xulosa va fikrlar chiqarish malakalarini egallaydi.

Zaif eshituvchi o'quvchilarning og'zaki muloqatini rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyat predmetli-amaliy faoliyatdan foydalanib tashkil etiladigan internatdagi to'garak ishlari doirasida yaratiladi.

To'garak ishlarida quyidagi vazifalar xal etiladi: lug'at boyligini aniqlashtirish va kengaytirish; kommunikativ malakalarni rivojlantirish; xamkorlikdagi faoliyatga xizmat qiluvchi grammatik qurilmalar qayta ishlanadi; kattalar va bolalar bilan suxbatni predmetli vaziyat asosida davom ettirib muloqatga kirishish malakalari rivojlantiriladi; og'zaki muloqatga qiziqishi oshiriladi.

Shunga qaramasdan zaif eshituvchi o'quvchilarning og'zaki kommunikatsiyasi, darsdan tashqari vaqtlarda faol amalga oshirilishi kerak, amaliyot bu toifa bolalarda kommunikativ malakalarni yetarlicha shakllanmaganligidan dalolat beradi. Bu zaif eshituvchi o'quvchilarning dialogik nutqini sinfdan tashqarida shakllantirish bo'yicha aniq metodik ko'rsatmalar va tavsiyalarning yo'qligi bilan bog'liq.



Demak, dialogning tabiati, xususiyat, faoliyati uni o'quv jarayonida, shaxslararo aloqalarda amalga oshirishning turli xil usullari va shartlari mavjud. Shu bilan birga surdopedagogika fani tadqiqotlarida zaif eshituvchi o'quvchilarning og'zaki kommunikatsiya xususiyatlari aks ettirilgan shuningdek, bu o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarda dialogik nutqini rivojlantirish bo'yicha aniq metodika ochib berilgan ishlar haddan tashqari kam. Shunga bog'liq ravishda, zaif eshituvchi o'quvchilarning og'zaki nutq xususiyatlari va dialogik nutqini darsdan tashqari faoliyatlarda shakllantirish tizimini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аюпова М.Й. Логопедия. - Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2007.
2. Аксенова Л.М. Социальная педагогика в спетсиалном образовании: Учеб. пособие. - М.: Издательский центр «Академия», 2001. - 192с.
3. Базилевская В.Н. Развитие речи глухонемых детей в игре. / Под ред. А.Ф. Понгилской. - М.. 1997. - 64 с.
4. Волкова К.А., Попова Е.К. Кружок техники речи как форма внеклассной работы над произношением глухих учащихся // Развитие глухих учащихся в условиях внеклассной и внешкольной работы.-М., 2001
5. Тешабаева О.Ф. Современный подход к обучению будущих сурдопедагогов в процессе самостоятельного образования // «Общество и инновации» Том 5 № 10/S (2024).